

Yosh matematik Butunjahon fanlar akademiyasi (TWAS) ning Yosh olimlar Kengashi a'zosi bo'ldi

Butunjahon fanlar akademiyasi (TWAS) Birlashgan millatlar tashkiloti shafeligida faoliyat ko'rsatuvchi yirik xalqaro ilmiy muassasadir.

Bugungi kunda mazkur nufuzli ilmiy tuzilma sayyoramizning barcha qit'alaridan ming nafardan ziyod yetakchi olim, muhandis va ixtirochilarni birlashtirib kelmoqda. 2021-yil 17-avgustda tashkilotning yangi yosh a'zolarini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan saylovda o'zbek olimi ana shunday yuksak sharafiga munosib topildi. Raxmatullayev Muzaffar Muxammadjanovich Markaziy Osiyodan yangi saylangan olimdir.



TWAS CENTRAL & SOUTH ASIA REGIONAL PARTNER
(TWAS-CASAREP)

at: JAWAHARLAL NEHRU CENTRE FOR ADVANCED SCIENTIFIC RESEARCH, Jakkur P.O., Bengaluru - 560 064, INDIA

Date: 17-08-2021

Dr. RAHMATULLAEV MUZAFFAR MUHAMMADJANOVICH
Institute of Mathematics, 4 University street,
100174, Tashkent, Uzbekistan
Phone: 998-97-330-59-47, FAX: 998-71-262-73-57
E-Mail: mrahmatullaev@rambler.ru, mrahmatullaev@mail.ru

Subject:- Your Selection as TWAS Young Affiliates

Dear Dr. Muhammadjanovich

I am happy to inform you that your nomination for TWAS Young Affiliates-2021 has been successful. You have been selected as a TWAS Young Affiliate, for a period of six years.

It is mandatory, that you may be invited to make a short presentation of your academic and research contributions in the forthcoming TWAS General Meeting. You will be receiving a mail about this from TWAS, Trieste, Italy.

Let me warmly congratulate you and wishing you all the best.

With best wishes,

V Krishnan
Co-ordinator

Muzaffar Raxmatullayev 1982-yilda Namangan viloyati, Uychi tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Milliy universitetini tamomlagan. Namangan davlat universitetida aspiranturani muvaffaqiyatli yakunlagan. So'ngra O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika institutida M.Raxmatullayev 2017-yilda professor O'tkir Roziqov rahbarligida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan. M.Raxmatullayev 2020-yildan buyon FA Matematika instituti Namangan hududiy bo'linmasi mudiri lavozimida ishlab kelmoqda.

M.M.Raxmatullayev 100 dan ortiq ilmiy ishlar muallifi, ahamiyatlisi shundaki, nashrlarining katta qismi yuqori impakt-faktorli xalqaro jurnallarda chop etilgan.

M.M.Raxmatullayev yuqori malakali kadrlar tayyorlash borasida ham bir necha yildan buyon sermahsul faoliyat yuritib keladi. Bugungi kunda shogirdlari orasidan 5 tasi PhD ilmiy darajalarini olishga tayyorlanmoqdalar.